UO‘K 8.085.13.04

URUSH MAVZUSIDAGI BADIIY ASARLARDA QAHRAMON RUHIYATI TASVIRI

A.R. Mahammadiyev

Maqolada nostandart vaziyat hisoblangan urush jarayonida qahramonning ruhiy dunyosida sodir bo‘luvchi o‘zgarishlar va ana shu o‘zgarishga sabab bo‘luvchi hodisalar tahlil qilingan. Qahramonning ruhiyatida sodir bo‘luvchi o‘zgarishlarni belgilovchi omillar sifatida uning nutqi, tashqi harakat dinamikasi, ichki monologlari va o‘y-fikrlari olingan. Qahramonning nutqi va xatti-harakatlari orqali unda sodir bo‘layotgan ruhiy o‘zgarishlar badiiy psixologizmning ko‘rinishlari sifatida talqin qilingan.

Kalit so`zlar: *badiiy psixologizm, ruhiy dunyo, konflikt, qahramon nutqi, ichki konflikt, ichki monolog, retrospeksiya*.

В статье анализируются изменения, происходящие в психическом мире героя во время войны, которая считается нестандартной ситуацией, и события, обуславливающие это изменение. Его речь, динамика внешнего действия, внутренние монологи и мысли взяты как факторы, определяющие изменения в психике героя. Через речь и поступки персонажа происходящие в нем психические изменения интерпретированы как проявления художественной психологии.

Ключевые слова: *художественный психологизм, духовный мир, конфликт, речь героя, внутренний конфликт, внутренний монолог, ретроспекция.*

Badiiy psixologizm o‘zbek adabiyotshunosligiga yaqin yillarda kirib kelgan tushuncha hisoblanadi. Lekin, shu bilan bir qatorda, bu atamani to‘laligicha o‘zbek adabiyotshunosligida yaqinda paydo bo‘lgan deyishdan ham yiroqmiz. Chunki bu atama yaqinda kirib kelgan bo‘lsa-da, uning belgilari ancha oldin shakllanganini ham isbotlovchi dalillar talaygina. Faqat ular ayni shu atama ostida o‘rganilmagan, xolos. “...badiiy psixologizm deyilganda personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari, gap-so‘zlarining psixologik jihatdan asoslanishi tushunilib, u mazkur vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi qator usul, vositalarni o‘z ichiga oladi” [1. B. 71]. Bundan ko‘rinadiki, badiiy psixologizm personaj ruhiyatini ochib beruvchi usullar jamlanmasi ekan. Yana bir tomoni ham borki, badiiy asar – badiiy ijod mahsuli. Ayni shu jarayonda ijodkor ma’lum bir psixologik jarayonni boshdan kechiradi. Bu esa o‘z navbatida asar mazmuniga ham ta’sir qiluvchi holat hisoblanadi. Bu jarayonlar esa o‘zbek adabiyotida juda kam o‘rganilganligi olimlar tomonidan ta’kidlab o‘tilgan. “Badiiy ijod psixologiyasi muammosi chet el adabiyotshunosligida ancha chuqur o‘rganilgan. M.Arnaudov, A.T.Tseytlin, L.S.Vigotsky, B.S.Meylax, P.V.Medvedev, L.N.Yakobson, E.G.Yakovlev, Yu.Oklyanskiy, A.M.Levidov, E.S.Gromov kabi adabiyotshunoslarning asarlarida badiiy ijodning umum nazariyasiga, tabiatiga, sirlariga oid asosli va qiziqarli ma’lumotlar to‘plangan va tahlil qilingan” [2. B. 7]. Rus adabiyotshunosi A.B.Esin badiiy psixologizmga shunday ta’rif beradi: “badiiy psixologizm – bu asar personajining xayolot olami, fikrlari, mulohazalarining o‘ziga xos badiiy vositalardan foydalangan holda juda to‘liq, batafsil va chuqur ifodalab berilishi” [3. B. 24]. N.Chernishevskiy esa quyidagicha izohlaydi: “bir muallif xarakter qirralarini ochib berishga urinsa, boshqasi xarakter shakllanishiga jamiyat va turmush ta’sirini ko‘rsatib beradi; uchinchisi xatti-harakatlarning his-tuyg‘ular bilan aloqadorligini; to‘rtinchisi ehtiroslar tahlilini tasvirlaydi” [4. B. 14]. L.Ginzburg psixologizmning paydo bo‘lishi va rivojlanishi haqida boshqacharoq fikr bildiradi: “mavjud adabiy janrlarda psixologik yangiliklar endigina nish urayotgan bir vaqtda badiiy adabiyotning yondosh janrlari bo‘lmish – kundaliklar, memuarlar va avtobiografik janr-

larda psixologizm allaqachon o‘rnashib bo‘lgan edi” [5. B. 29].

Insonning ruhiy olami, uning asl ichki qiyofasi ko‘proq nostandart, favqulodda vaziyatlarda aslicha namoyon bo‘ladi. Chunki inson odatdagi vaziyatlarda o‘ziga turli chegaralar qo‘ygan bo‘ladi va mana shu chegaralarga qat’iy amal qilib yashaydi. Nostandart vaziyatlar esa ana shu chegaralarni buzib yuboradi. Natijada inson ichidagi, hatto o‘zi ham bilmagan, tanimagan qiyofasini bitta nigohida, bitta harakatida ko‘rsatib qo‘yadi. Keyin yana o‘sha qoliplarga solingan qiyofasiga qaytib olishi mumkin. Lekin inson mana shu nostandart vaziyat ta’sirida o‘zining aslini, ichki qiyofasini namoyon qilib qo‘yadi. Shuning uchun ham badiiy asarlarda qahramonlarning turli nostandart vaziyatlardagi ruhiy olamini o‘rganishga alohida e’tibor beriladi. Ularni favqulodda, nostandart vaziyatlarda tasvirlash orqali ijodkor qahramonlarning ruhiyatida yuz beruvchi o‘zgarishlarni ko‘rsatishga intiladi. Chunki bu holat o‘quvchida qahramon haqida to‘laqonli tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Bu narsa, ayniqsa, urush mavzusidagi asarlarda ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Chunki urushning o‘zi favqulodda hodisa.

A’zamjon Qozixo‘janing “Karvon yo‘lida” nomli qissasida xuddi shunday vaziyat – afg‘on urushi voqealari qalamga olingan. Qissaning qahramoni urush ichida tasvirlanadi. Nostandart vaziyat hisoblangan urushning ichida qanday harakat qilishi va turli favqulodda vaziyatlarda o‘zini qanday tutishi uning ruhiy olamini ko‘rsatib beradi. Chunki qissa qahramoni urushga, odam o‘ldirishga qisman bo‘lsa-da ichida qarshiligi bor bo‘lgan, lekin vaziyat va tuzum nuqtayi nazaridan shu vaziyatlarga bo‘ysunishga majbur bo‘lgan, ko‘nikkan odam edi. Asardagi qahramon psixologiyasi bilan bog‘liq holatlar, xatti-harakatlar, yuz ifodasi – barchasi uning ruhiy dunyosini ochib berishga xizmat qiladi. “Personajning yuz-ko‘z ifodasi, mimikasi, undagi fiziologik o‘zgarishlar haqida ma’lumot beruvchi bu sharhlar juda katta ahamiyat kasb etadi” [6. B. 49]. Bundan ko‘rinadiki, bir maromda, hech qanday o‘zgarishlarsiz davom etayotgan qahramon ruhiyatida sodir bo‘luvchi o‘zgarishlar uning oddiy bir kichik harakatlari yoki imo-ishoralarida ham sezilib qolishi mumkin. Ayni shu o‘zgarishlar ortidan esa qahramon dunyoqarashida, uning moddiy yoki ma’naviy olamida tub burilishlar sodir bo‘ladiki, bunday holatlar natijasida qahramon mutlaqo kutilmagan va favqulodda boshqa insonga aylanadi. Muhim jihati, bu o‘zgarishlarning belgilari avvaldan ko‘rsatilmaydi, to‘satdan sodir bo‘lgani uchun qahramonning o‘ziga ham tushunarsizdek, aslida. Albatta, personaj ruhiyatidagi o‘zgarishlarni harakat keltiruvchi kuch qahramonda urushdan avval urushga nisbatan shakllangan shaxsiy munosabat, to‘la va me’yoriga yetgan “shaxsiy qarshilik” bo‘lishi ham mumkin. Biroq afg‘on urushi masalasida bunday fikrlash biroz o‘rinsizdek tuyuladi. Chunki afg‘on urushidagi xunrezliklarni, sodir bo‘layotgan qabih ishlarni ko‘rib, “baynalmilal” burchini bajarish uchun borgan jangchilar ruhiyatida o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlaydi, ayni mana shu o‘zgarishlar nostandart vaziyat hisoblangan urushning qay tomonga hal bo‘lishiga ham ma’lum ma’noda ta’sir ko‘rsatgandek taassurot qoldiradi.

Qissada dastlab qahramonning o‘y-xayollari beriladi, bu orqali o‘tmish voqealariga qaytiladi, shu qaytish orqali muallif personaj qalbida kechayotgan ruhiy o‘zgarishlarni ham bevosita ko‘rsatishga harakat qiladi. Chunki boshlanmadayoq qahramonlarning tashqi qiyofalarida qandaydir ruhiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotgani sezilib turadi: “Yuzlar ko‘rinmas, shunga qaramasdan ich-ichimizdan ezilib, eshak haydagandek “xix” deb kulib qo‘yardik” [7. B. 19]. Shu tasvirning o‘zidayoq qahramonlarning ayni o‘sha jarayondagi ruhiy holatlarini tasavvur qilish mumkin: nimadandir chuqur qayg‘uga tushgan personajlarda o‘z taqdiri haqida o‘ylashga-da xohish yo‘q. Chunki o‘z taqdirlarini qay holatda o‘ylashmasin, bu o‘yning oxiri o‘lim haqidagi xayol bilan yakun topadi. Ular o‘limni bo‘yinlariga olishgan, o‘limdan qochib qutulib bo‘lmasligini yaxshi anglashadi. Ular uchun muhim va qo‘rqinchli bo‘lgan tomoni o‘sha o‘lim hodisasining qay tarzda amalga oshishidir. Yo‘lda ketayotgan barchalarining xayollari shu o‘y bilan band. Shuning uchun bir-birlarining yuzlarini ko‘rishmasa ham, sheriklarining qay holda qanday o‘ylar ichida ketayotganlarini seza oladilar. Fikrlar bir nuqtaga qaratilganligi uchun ham sodir bo‘luvchi har qanday voqea ularning xayollarida ayni o‘sha yakunga tegishlidek tuyulaveradi: “Mashina do‘qirga tushdi. Bu tuproq bizni xushlamaganini oshkor etib, g‘ildiraklarni ko‘tarib urdi” [7. B. 20].

“Adabiyotshunoslikka oid manbalarda badiiy psixologizmning dinamik, tipologik va analitik prinsiplari farqlab ko‘rsatiladi. ...muayyan personaj ruhiyati tasvirida bu uchala prinsip ham qorishiq holda namoyon bo‘ladi” [6. B. 49]. Bundan ko‘rinadiki, badiiy psixologizmning prinsiplari birlashib, ayni bir jarayonni ifodalashi mumkin bo‘larkan, ya’ni biri ikkinchisini to‘ldiradi va ular ichida qaysidir biri yetakchilik qiladi. Yuqoridagi tasvirda esa ko‘proq analitik prinsip yuqoriroq turadi. Chunki qahramon bir fikrdan ikkinchi fikrga juda tezlik bilan “sakrab” o‘tmoqda, mana shu holatda u o‘zining ichki kechinmalarini ham ochiqlab ketyapti. Muallif turli tasvirlar orqali qahramonlarning ichki kechinmalarini ko‘rsatib berishga harakat qiladi, mana shu harakatning natijasi o‘y-fikrlarning tezlik bilan o‘zgarishi va uning markazida “o‘lim”ning turishi tasvir tizginini beixtiyor personajlarning o‘ziga topshirib qo‘yilishiga olib keladi. “Olg‘a, Olg‘a! Qayerdadir eshak hangrab yubordi (Eshak shaytonni ko‘rsa, hangrar ekan.) Bu ovoz naq ichimizdan kelgandek, hammamiz o‘zimizni tappa yerga tashladik. Hangroq sekin-asta o‘layotgan odamning xirillashiga o‘xshab tinib qoldi” [7. B. 21]. Bu yerda personaj o‘y-fikrlari oqimining aynan o‘lim haqidagi xayolga olib kelinishidan maqsad ham o‘sha lahzada personajlar ongini qanday fikr egallab olganligini ko‘rsatishdan iborat. Biz tahlil avvalida insondagi urushga bo‘lgan qarash urush tashqarisida boshqacharoq, urush ichiga kirganda esa umuman boshqacharoq bo‘lishi mumkinligi haqida gapirgan edik. Bunga sabab esa ular uchun har qadamda o‘lim bilan yuzma-yuz kelish odatiy holga aylanib qolgan edi. Lekin ana shu “odatiy hol” ham oxirida juda katta qo‘rquvga aylandi, ular har qadamda o‘sha o‘lim xavfidan qo‘rqadigan darajaga yetib keldilar. Shuning uchun atrofda sodir bo‘layotgan har qanday hodisadan o‘lim sharpasini izlaydigan bo‘lib qoldilar. “Yaxshisi hech narsani o‘ylama. Shunda o‘lmaysan. O‘lim – sovuq o‘y” [7. B. 22]. Qahramon har xil gap-so‘zlar bilan o‘z xayolini boshqa nuqtaga burishga harakat qiladi, nima qilib bo‘lsa-da, o‘lim haqidagi xayoldan chalg‘ishga urinadi.

“Hamma juda qisqa bir qo‘rquvdan esankirab qoldi. Shunda kutilmagan bir hayqiriq jarangladi: “Allohu Akbar!!!” Oniy lahzada u meni chetga surib tashladi-da, Igorni tepdi…” [7. B. 24]. Bu tasvirga e’tibor qarataylik. Eng avval aytmoqchi bo‘lganimiz, muallif ushbu voqealarni qayta jonlantirib, ko‘z oldiga keltirib yozmoqda. Birinchi jumlada “hammaning juda qisqa bir qo‘rquvdan esankirab qolgani” aytildi. Bu yerda asar qahramonining “hamma” olmoshini ishlatishiga ahamiyat bersak, ayni shu voqea yuz bergan paytda faqat qahramon emas, balki boshqa sheriklari ham o‘lim bilan yuzma-yuz kelmoqda va ayni shu yuzlashish jarayonida qalblarida kechgan hislar batafsil emas, umumiy shaklda berib ketilmoqda. Barcha sheriklari ham “juda qisqa qo‘rquvdan” esankirishi keltirilmoqda. Qo‘rquvning qisqa, qisqa bo‘lganda ham juda qisqa turi qanday kechadi? Ahamiyatli tomoni shundaki, u o‘zi va sheriklarining qo‘rqqanligini yashirib o‘tirmay, boricha yozmoqda. O‘zidan qandaydir qahramon yasashga urinmayapti. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, ular his qilgan qo‘rquvning qisqaligini boshlanish nuqta deb olamiz va undan keyingisi bosqichda qo‘rquvning ichki qismi, ya’ni ular endi o‘sha qo‘rquvning ichida yashamoqdalar. Bu qo‘rquvning natijasi esa kundek ravshan – o‘lim. Keyingi holat esa “esankirash” jarayoni. Inson avvaldan natijasini bilgan ish-harakat qarshisida esankiramaydi. Bu tasvirdan anglashilgani va ayni shu esankirashni dalillovchi so‘z keyingi jumla boshida kelayotgan “kutilmagan” so‘zidir. Bu so‘z “esankirash”ning sababini bildirib, personajlar kutmagan ishlar ro‘y berayotganini ifodalashga imkon beradi. Personajlar to o‘zlarini o‘nglab olgunlariga qadar juda tez sur’atlarda voqealar sodir bo‘ladi, bu esa ularni esankiratib qo‘yadi. Qahramonning o‘lim bilan to‘qnashish holatidagi tasvirga diqqat qilsak, uchta jumlada muallif quyidagi so‘zlarni bir necha bor ishlatadi: “bir qo‘rquv”, “bir hayqiriq”, “oniy lahza”. Ayni shu so‘zlar orqali muallif o‘limning yoki dahshatning personajlardan unchalik uzoqda emasligini, o‘lim bilan hayot orasi bir lahzalik ekanligini tushuntirishga intiladi. Mana shunday oniy lahzalarda qahramon o‘z ichki olamida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aslicha namoyon qiladi.

Qahramon ruhiyati ko‘p hollarda uning ichida kechadigan o‘z-o‘zi bilan kurashida, ichki monologlarida yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi, bu orqali personaj ichki olamini yanada aniqroq ilg‘ab olamiz. Ayni shunday jarayonda qahramon o‘zi sezmagan holda ichki olamida kechayotgan o‘y-fikrlarini sezdirib qo‘yadi. “Bu

ishlar shu darajada tez sodir bo‘ldiki, men – xizmati oxirlab qolgan “qari” askar, ikki yildan beri urushning issiq-sovug‘ini totib kelayotgan tajribali jangchi ham esankirab qoldim. U avtomatni aylantirib qo‘ltig‘iga qisguncha tepkini uch marta bosdim. Shundagina u menga qayrilib qaradi” [7. B. 24]. Muallif ushbu tasvir orqali eng avvalo personaj holatini o‘quvchiga tushuntirishga harakat qiladi. Birinchidan, ushbu holat tez va kutilmaganda ro‘y bergani aytiladi, ikkinchidan, personaj o‘zining tajribaga ega ekanligini “qari” sifati bilan eslatib o‘tadi. Keyin tajribaga ega ekanligini amalda isbotlaydi, ya’ni afg‘on mujohidi to avtomatni olib qo‘ltig‘iga qistirgunicha unga uch marta o‘q uzadi. Agar diqqat qilinadigan bo‘lsa, qahramonning afsuslanishi ayni shu voqeadan keyin boshlanadi. Uning ruhiyatida juda katta evrilishga sabab bo‘lgan voqea ham mujohidni o‘ldirishi bilan bog‘liq. Qahramon bundan oldin ham urushda juda ko‘p qatnashganini, “urushning issiq-sovug‘ini” ikki yildan beri totib kelayotganini aytganida ham hech qanday afsuslanish hissi yo‘q edi. Ya’ni u o‘tgan ikki yil davomida ham odam o‘ldirganini taxmin qilish mumkin. Biroq o‘tgan voqealarni u hech qanday afsuslanishsiz eslaydi. Ammo aynan shu mujohidni o‘ldirgandan so‘ng juda ham qiyin ahvolga tushadi, o‘zini kechira olmay qoladi, hatto sheriklari bilan ham oldingidek gaplashmaydigan kayfiyatga tushadi, odamovi bo‘lib qoladi, mujohidning o‘ligini yoqib yuborgan, quloqlarini kesib olgan spetsnaz bilan yoqalashish darajasiga yetadi. Bunga sabab nima edi? Birinchi sabab sifatida mujohid o‘rnidan turib raqiblar tomonga yugurganda qahramonni qo‘li bilan chetga surib tashlagan, ya’ni unga hech qanday ziyon yyetkazmaganini aytish mumkin. Taxmin qilish mumkinki, afg‘on mujohidi qahramon tilidan, yuz-u ko‘zidan uning musulmon ekanligini anglagan, shuning uchun unga ziyon yetkazishni istamagan. Ikkinchi sabab esa mujohidning o‘lim oldidan qissa bosh qahramoniga qayrilib qaraganligidir. Ayni shu qarash bilan u qahramonning butun o‘y-xayollarini parokanda qilib tashlaydi. Chunki qahramon uni chetga surib qo‘ygan, ya’ni ziyon yetkazishni istamagan “dushman”ini tap tortmay uchta o‘q bilan o‘ldiradi. Bu esa unga nisbatan nomardlik ekanligini qahramon ich-ichidan his qiladi. Qahramon ruhiyatini to‘s-to‘polon qilib yuborgan voqea esa mujohidning yerga qulashi jarayonida sodir bo‘ladi. “Yiqilish barobarida, to tili tutilib qolguncha u bir kalimani tinimsiz takrorlardi: “La ilaha illalloh! La ilaha illalloh!..” [7. B. 25]. Ayni shu jumlalar qahramon o‘y-fikrlarini tubdan o‘zgartirib yuborgan, deyish mumkin. Chunki qahramon shu paytgacha ko‘plab o‘limlarni, ko‘plab jon berayotgan askarlarni ko‘rgan, ularning jon chiqish oldidan aytgan so‘nggi so‘zlarini ko‘p bor eshitgan, ularga achingan va kun kelib o‘zining ham shu ahvolga tushishi mumkinligini o‘ylab ruhan ezilgan, hatto o‘sha voqea o‘zi bilan sodir bo‘lsa, o‘z tilidan eng oxirgi bo‘lib qaysi kalima chiqishini ham biladigan darajada o‘limga yaqin kelgan. Lekin mujohidning o‘lim oldidan aytgan kalimasi u uchun go‘yo yangilik edi. Chunki bunday so‘z aytib jon berayotgan odamni birinchi marta ko‘rishi edi. Personaj voqealar davomini shunday hikoya qiladi: “Odatda, o‘layotgan askar onasini eslab, “Onajon!” “Onajon!” deya jon beradi. Bunday hodisalarga ko‘p guvoh bo‘lganman. Men uchun kutilmagan hol. O‘zimni g‘alati his qila boshladim. Sheriklarim jonsiz tananing kissalarini titkilashga oshiqishdi” [7. B. 25].

Ayni voqeadan boshlab qahramon ruhiyatida butunlay boshqa, oldin kuzatilmagan o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlaydi. Avval qilib yurgan ishlari endi nafsoniyatiga tega boshlaydi. Qisqa qilib aytganda, mujohidning o‘limi, o‘lim oldidan aytgan so‘nggi kalimasi shu paytgacha begona yurtda shu yurt egalariga qarshi qurol ko‘tarib yurgan bir oddiy askarning ko‘zlarini ochib qo‘yadi: “qahramon ayni shu kalimadan keyin Allohni taniy boshlaydi. O‘zining qilgan qabih ishlarini birma-bir ko‘z oldidan o‘tkazib, o‘zidan jirkana boshlaydi” [8. B. 25]. Bundan ko‘rinadiki, qahramon ruhiyatida endi qarama-qarshiliklar sodir bo‘lmoqda. Mana shu qarama-qarshiliklar natijasida qahramon o‘y-fikrlarida o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlaydi, ayni shu holat natijasida uning ruhiyatida avval sodir bo‘lmagan holat tug‘iladi: o‘z holatini tahlil qilish. Birgina shu mujohidning o‘limi natijasida qahramon butunlay boshqa insonga, o‘tgan umrini, qilgan ishlarini sarhisob qilib, o‘zidan nafratlanadigan insonga aylanib qoldi. Bu holat birdaniga sodir bo‘lmadi, albatta. Bunday kechinmalarni boshdan kechirish uchun qahramon ruhiyatida avvaldan ozroq bo‘lsa ham tayyorgarlik bo‘lishi kerak edi. Ayni shu tayyorgarlik mujohid o‘limi bilan to‘qnashdi va endi o‘sha o‘zgarish jara-

yoni keskin tarzda sodir bo‘ldi. Qahramon atrofga befarq bo‘lib qoldi, sheriklaridan va o‘zidan ham nafratlana boshladi, qilgan ishlari xatoligini his qildi, shuncha yashagan umri befoyda yashalgan kunlar ekanligini aniq va teran anglay boshladi, atrofdagi voqealar uning g‘ashiga tega boshladi. Ayni mana shu hodisalarning ro‘y berishiga birgina o‘sha mujohidning o‘limi, uning o‘lim oldidan aytgan so‘zlari sabab sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Xuddi unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni atrofidagi sheriklari ham payqayotgandek, lekin ular ham yurak yutib undagi bu holni bir-birlariga yetkazishga ojiz. Ular faqat o‘z “dardlari” bilan banddek. “Menga qarab-qarab qo‘yishar, o‘likning bisotini talashga ko‘proq haqli bo‘lsam ham, joyimdan jilmay turganimga hayron bo‘lishar, lekin o‘ljani birortasi ilib ketishmasin, deya o‘zlarini murda ustiga tashlashar edi” [7. B. 25]. Sheriklari “o‘likning bisotini” talashga uning haqli ekanligini bilish bilan bir qatorda, ular bu ishga o‘zlarini ham haqlari bor deb o‘ylashadi. Bu holat muhim emas, biz uchun ahamiyatli tomoni – sheriklarining unga qarab-qarab qo‘yishlari. Chunki bunday holat, ya’ni o‘lik tepasida harakatsiz holda jim qolish qahramonda birinchi marta ko‘zga tashlanmoqda. Shuning uchun ham sheriklari uning bu holatiga hayron bo‘lishadi. Ayni shu holat uning ongida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning boshlang‘ich nuqtasi deb ayta olamiz. Negaki, qahramon shu daqiqadan boshlab o‘zini ayovsiz taftish qila boshlaydi. Uning ruhiyatida avval hech uchramagan jarayon – o‘zini o‘zi so‘roqqa tutish, qilayotgan ishlarini tahlil qilish boshlandi. “Men, lekin men. Hali-hanuz o‘y-u xayollarimning adog‘i yo‘q. Eslayman-u, o‘sha hodisaning shukuhi jismimga titroq soladi. Arzu holimni kimga aytay... Yaratuvchi egam bilar-u bandasi bilmas. ...Uyalmay Haqni ham bu oraga tiqding. Aslida-ku, bu vayrona yurtda ne-ne telbaliklarga qo‘l urding. Iymon ganjlarini toptab, dilingni kufr ellariga berding. Oqibat ranj-u mehnatlarda, zulmatda necha yillab sarson-sargardon kezding. Bular ham yetmagandek, o‘sha tunda shundoq bir ishga qo‘l urding. Yupanch bir so‘z topaman: Men otmasam, meni otardi. Lekin hanuz tushunib yeta olmayman. U imkoni bo‘lgan ishga nega qo‘l urmadi? Nega meni chetga surib qo‘ydi? Bunda pinhon sir bormi? Bor bo‘lsa, u ne?! Yoki gavdamning kichikligini nazarga ilmadimi? Bo‘lmasa, nega yosh boladek chetga surib, qolganlarga tashlandi? Taqdir deganlari ehtimol shudir” [7. B. 25]. Shu ichki monolog orqali qahramonning butun ruhiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qahramon o‘zini boshidan boshlab tergov qila boshlaydi, insonning eng nozik nuqtasi bo‘lmish e’tiqod masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tadi. O‘zini taftish qilar ekan, qilgan ishlarining xato ekanligini chuqur his qiladi. Lekin ayni shu his qilish barobarida u o‘zini oqlashga urinayotgani ham seziladi. Qahramon mujohidning qilgan ishidan taajjublanadi, hatto o‘zini qisman kamsitilgandek his qila boshlaydi. Nihoyat, o‘zini chalg‘itish uchun “men otmasam, meni otardi” degan fikrga keladi, shu orqali biroz bo‘lsa-da o‘zini yupatmoqchi bo‘ladi. O‘zini yupatish asnosida qahramonning o‘zi-da o‘lim bilan yuzma-yuz keladi, ayni shu lahzada o‘z ko‘nglidan o‘tgan kechinmalarini boricha ifodalaydi: “Qo‘llarim qaltirar, ko‘zlarim ich-ichiga cho‘kib ketayotganga o‘xshardi. O‘lib qolsam-a!? – degan o‘y chaqmoqday miyamga urildi. Yo‘q, deya o‘zimni ovuta boshladim. Bir hafta ilgari otib tashlaganim – o‘lik ko‘z oldimga keldi. Uning so‘nggi nigohi, hammadan ham oxirgi so‘zi...” [7. B. 39]. Insonning o‘lim bilan yuzlashishi, ayni shu jarayonda ongidan kechuvchi holatlar uni ham jismonan, ham ruhan o‘zgarishlari – barchasi bor holicha tasvirlangan. Ayni shu daqiqada qahramondagi holatlar quyidagicha: qo‘llari tinimsiz qaltiraydi, ko‘zlarida ham ichkariga cho‘kish holati kuzatilmoqda, miyasiga esa o‘lib qolish haqidagi fikr keladi, undan keyin esa o‘zini o‘lmaslikka ishontira boshlaydi, eng oxirida o‘zi otib o‘ldirgan mujohidning so‘zlarini eslaydi – bular barchasi jamlanib qahramon ruhiyatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni aks ettiradi. Yuqoridagi fikrlarga asos sifatida quyidagi tasvirni keltirish mumkin: “Hozir o‘lib qolsam-a. Yo Xudo, o‘zing saqla! Sen bor bo‘lsang, men o‘lmay o‘taman. Ich-ichimdan kelgan bu nidoni bugun eslasam, uyatdan qochgani joy topolmay qolaman. Sen kimsan o‘zi? Yaratuvchiga shart qo‘yishga nima haqqing bor?!” [7. B. 39].

Qahramonning ko‘prikdan o‘tish tasvirida ko‘nglidan kechayotgan fikrlariga diqqat qiladigan bo‘lsak, bu holatda qahramonning o‘zida emasligi anglashiladi. Qahramon ruhiy bosimning eng yuqori darajasiga chiqib borgan, u endi o‘lim bilan tiriklikning o‘rtasida faqat o‘z jonini saqlab qolishga urinayotgan inson sifatida taassurot qoldiradi. Aslida esa qahramon o‘lim bilan

to‘qnashishini sezgan holda, undan qandaydir yo‘llar bilan qochishga harakat qilmoqda. Hatto Ollohga murojaatida ham aynan mana shu holatni birinchi o‘ringa qo‘yadi va shart qo‘yish darajasigacha boradi. So‘ngida esa o‘z qilmishidan o‘zi ham muztar bo‘ladi, keyinchalik gapirgan gaplarini tahlil qilishga imkon tug‘ilganda boshqa bir holatni boshdan kechiradi. Qahramon o‘limdan bu darajada qo‘rqishiga sabablar ham yetarli edi. Chunki uni “chiroyli” emas, judayam ayanchli o‘lim kutib turganini his qila oladi. Buning yana bir asosi sifatida uning atrofida sodir bo‘layotgan turli xil shakldagi, ammo mazmuni bir xil bo‘lgan o‘lim tasvirlarini keltirish mumkin. “Bir payt mashina shitob bilan o‘t oldi-da, yarador yotgan Igorni bosib shitob bilan oldinga intildi. Igorning jon chiqardagi baqirganini eshitdim” [7. B. 44]. Atrofdagi insonlar o‘z jonini saqlab qolish uchun sherigini-da qurbon qilishga tayyor. Bu urush davri uchun oddiy holdek qabul qilinishi mumkin, lekin har qanday holatda ham inson insoniylik qiyofasini saqlab qola olishi kerak. Urushda inson, qanchalik ayanchli bo‘lmasin, eng avvalo, o‘z jonini saqlashga harakat qiladi. Aynan shu o‘y ta’sirida qahramon mujohidning o‘ldirilishiga ham yechim topgandek bo‘ladi. Urushda sen o‘ldirmasang, seni o‘ldirishadi. Shuning uchun hamma birinchi navbatda o‘z jonini asrash payidan bo‘ladi. Boshqacha aytganda, urush romantizmni yoqtirmaydi, u faqat realizmni talab qiladi. Qahramonning asirga tushib qolgan joyi ham o‘lim bilan yonma-yon nafas olishni eslatadi. Chunki hammasi aniq hal qilib qo‘yilgandek: “…yoki meni qo‘rqitmoqchi edimi, lo‘kidonni sharaqlatib tortdi. Men ko‘zlarimni yumib, bo‘ldi, endi ketdim, deb o‘yladim. O‘zim otib tashlagan mujohid yodimga tushdi. Uning so‘nggi nigohi, oxirgi so‘zlari... “La ilaha illalloh!” deb yubordim” [7. B. 45]. Ayni shu tasvirlardan sezish mumkinki, qahramon o‘limni bo‘yniga olib bo‘ldi, shu bo‘yniga olish barobarida mujohiddan eshitgan, ammo ma’nosi nima ekanligini-da bilmaydigan kalimani aytib yuboradi. Bu yerda diqqat qilish kerak bo‘lgan bir holat mavjud, bu ham bo‘lsa, qahramonning o‘lim oldidan aytgan oxirgi gaplari. U juda ko‘p o‘limlarni ko‘rdi, “onajon” deb o‘lganlarni ham, og‘zidan bodi kirib, shodi chiqqan holda o‘lganlarni ham, dodlab o‘lganlarni ham ko‘rdi. Lekin uning qalbida mujohidga achinish tuyg‘usi bor edi, shu tuyg‘u natijasida uning o‘lim oldidan aytgan gaplarini esda saqlab qolgan edi. Shuning uchun ham o‘limi muqarrarligini his qilgan paytida ayni o‘sha kalimani aytadi, bu orqali mujohid oldidagi “qarzini” uzgandek bo‘ladi. Shu kalima natijasida esa omon qolishi xayoliga ham kelmagan edi. Qahramon o‘lim bilan yuzlashish voqeasini boshdan kechirganidan keyingi tasvirga e’tibor beramiz: “Mendan endi o‘lim xavfi ariganda yana kasalim xuruji boshlandi. Behol o‘tirib qoldim” [7. B. 45]. Inson qay darajada kuchli bo‘lmasin, o‘limni tabassum bilan kutib ololmaydi. Qahramonimizda ham aynan shu jarayon kechdi, avval o‘limni bo‘yniga olib turganda tanasida hech qanday og‘riq sezmadi, o‘lim xavfi o‘tib ketgandan keyin yana tanasidagi og‘riqni his qila boshladi.

Yuqoridagi tahlillarga tayanib xulosa qilish mumkinki, urush mavzusidagi asarlarda qahramon ruhiyati juda ham o‘zgaruvchan bo‘ladi va u vaziyatga qarab evrilib turadi. Qahramon o‘lim bilan yuzma-yuz kelganda ruhiyatini hech qanday niqoblarsiz, boricha namoyon qiladi. Chunki bu vaziyatda inson o‘z ruhiyatini boshqara oladigan holatda bo‘lmaydi. Qahramon ruhiyati uning boshqa personajlar bilan suhbatlari, ichki monologlari va xatti-harakatlari orqali ochib beriladi.

Adabiyotlar:

1. *Quronov D.* Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 310 b.
2. *Умуров Х.* Бадиий ижод асослари: – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. –120 б.
3. *Есин А.Б.* Психологизм русской классической литературы. – Москва: Флинта, 2011. – 177 с
4. *Чернышевский Н.Г.* Собрание сочинений: В пяти томах. Том 3. Литературная критика. – Москва: Издательство “Правда”, 1974. – 509 с.
5. *Гинзбург Л.Я.* О психологической прозе. О литературном герое. Санкт-Петербург: Азбука, 2016. – 704 с.
6. *Қуронов Д, Шералиева М, Мамажонов З.* Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 408 б.

7. *Қозихўжа А.* Гар ортуқ сўз дедим... – Тошкент: Nurafshon business, 2021. – 296 б.
8. *Бобоев Т.* Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 560 б.
9. *Умуров Ҳ.* Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан, 1983. – 150 б.
10. Адабиёт назарияси. 2 томлик. 1-том. / М.К.Нурмуҳамедов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1978. – 416 б.

THE IMAGE OF THE HERO'S PSYCHE IN WORKS OF ART ON THE THEME OF WAR

Ahadjon R. Mahammadiyev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 3(71). 114-121.
[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: *artistic psychologism, spiritual world, conflict, heroic speech, internal conflict, internal monologue, retrospection.*

Artistic psychologism is a concept that has entered Uzbek Literary Studies in the coming years. But at the same time, we are far from saying that this term has appeared quite recently in Uzbek literary studies. Because although the term has recently entered, there is also evidence to prove that its symptoms were formed much earlier. Only they are not studied under the same term. "...when it is called Artistic psychologism, the disclosure, behavior, psychological justification of a character's psyche is understood, which includes a number of methods, tools that serve to carry out these tasks" [1. P. 71]. it is seen from this that artistic psychologism is a set of methods that reveal the spirit of the character. There is another side that a work of art is a product of artistic creation. In this process, the creator goes through a certain psychological process. This is in turn a condition that also affects the content of the work. It has been noted by scholars that these processes have been little studied in Uzbek literature. "The problem of the psychology of artistic creation has been much more acute in foreign literary studies. Mikhail Arnaudov, A.T.Tseytlin, L.S.Vigotsky, B.S.Meilach, P.V.Medvedev, L.N.Jacobson, E.G.Yakovlev, Yu.Oklyansky, A.M.Levidov, E.S.Gromov. In the works of literary scholars such as Gromov, well-founded and concise data on the general theory, nature, secrets of artistic creation are collected, and the analysis is qilingan" [2. P. 7] in Russian literature, the following definitions of artistic psychologism are given by literary scholars. Esin describes: "artistic psychologism is a very complete, detailed and in-depth representation of the character of a work using the characteristic artistic means of imagination, thoughts, reflections" [3. P. 24] Chernyshevsky, however, comments: "while one author tries to reveal the edges of a character, another-shows the influence of society and life on the formation of a character; the third-the relationship of behavior with emotions; the fourth describes the analysis of passions" [4. B. 14]. Ginzburg, on the other hand, expresses a more different opinion about the emergence and development of psychologism: ""at the same time that psychological news is just hitting the niche in existing literary genres, psychologism was already established in the genre of rasoil, diaries, memoirs and autobiographical" [5. B. 29] from these it is understood that the concept of artistic psychologism in Uzbek literary studies is also considered a pre-existing concept, and it is only noticeable that it is left behind in the matter of the term.

Relying on our above analyzes, we will be able to cite the following as a conclusion: in works on the topic of war, the hero's psyche will be much more volatile, and he will grow in euros depending on the situation. Heroes show their psyche as much as they do without any dyes when faced with death. Because in this situation, the hero will not be able to control his psyche. The hero expresses his inner psyche in conversation with the characters, in internal monologues and in his own behavior.

References:

1. Quronov, D. (2020) *Adabiyot nazariyasi asoslari* [Fundamentals of literary theory]. Tashkent: Innovation-Ziyo.

2. Umurov, Kh. (2001) *Badiiy ijod asoslari* [Fundamentals of artistic creativity]. Toshkent: O‘zbekiston.

3. Yesin, A.B. (2011) *Psihologizm russkoj klassicheskoj literatury* [Psychologism russkoy klassicheskoy literaturi]. Moscow: Flinta.

4. Chernyshevskij, N.G. (1974) *Sobranie sochinenij*: V pyati tomah. Tom 3. Literaturnaya kritika [Collected works: In five volumes. Vol. 3 [Literary criticism.]. Moscow: Pravda.

5. Ginzburg, L.Ya. (2016) *O psihologicheskoj proze. O literaturnom geroje* [About psychological prose. About the literary hero]. Sankt-Peterburg: Azbuka.

6. Quronov, D., Mamajonov Z., Sheraliyeva, M. (2013) *Adabiyotshunoslik lug‘ati* [Dictionary of literary studies]. Tashkent: Akademnashr.

7. Kazikhoja, A. (2021) *Gar ortuq so‘z dedim...* [I said the word...]. Tashkent: Nurafshan business.

8. Boboyev, T. (2001) *Adabiyotshunoslik asoslari* [Fundamentals of literary]. Tashkent: O‘zbekistan.

9. Umurov, H. (1983) *Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi* [Artistic psychologism and current Uzbek Romanianism]. Tashkent: Fan.

10. Nurmukhamedov, M.K. (ed.) (1978) *Adabiyot nazariyasi* [Theory of literature]. In 2 volumes. Vol. 1. Tashkent. Fan.

Muallif haqida ma’lumot:

MAHAMMADIYEV Ahadjon Ro‘ziboy o‘g‘li – Andijon davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti. Email: ahadmuhammad@bk.ru